

Date: 5th May-2026

IJTIMOY DAVLAT TAMOYILINING INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHDAGI O'RNI

Sayfiddinova Rayhonoy Baxriddin qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Davlat boshqaruvi huquqi mutaxassisligi magistranti

rayhonoysayfiddinova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan "ijtimoiy davlat" g'oyasining fuqarolar huquqlarini ro'yobga chiqarishdagi funksiyasi o'rganiladi. Maqolada mazkur g'oyaning ilmiy-nazariy zamini, boshqa mamlakatlar amaliyoti va uni O'zbekiston misolida qo'llash masalalari yoritilgan. Bundan tashqari, insonning sha'ni, adolat, tenglik hamda huquqiy muhofaza kabi asosiy qiymatlarning davlat boshqaruvida tutgan o'rni keng tahlil etiladi. Amalga oshirilgan tadqiqot O'zbekistonni fuqarolar huquqlarini kafolatlaydigan va ijtimoiy adolatga tayangan demokratik tuzumga yo'naltirish jarayonida nazariy va amaliy jihatdan muhim hissa qo'shadi.

Taqdim etilgan maqola O'zbekiston aholisi uchun ijtimoiy siyosat samaradorligini idrok etishga, inson huquqlarini kundalik hayotda amalga oshirish usullarini yanada boyitishga ko'maklashadi. Shu bilan birga, ilmiy doiralar va hokimiyat vakillari uchun ijtimoiy davlat mohiyatini teran tushunish hamda uni huquqiy va ijtimoiy asoslar orqali amaliyotga tadbiiq etishning yo'l-yo'riqlarini belgilab beradi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy davlat, inson huquqlari, ijtimoiy adolat, Konstitutsiya, inson qadri, ijtimoiy himoya, tenglik, demokratik jamiyat.

Аннотация: В данной статье анализируется роль принципа «социального государства» в обеспечении прав человека, закрепленного в новой редакции Конституции Республики Узбекистан. Рассматриваются теоретические основы концепции социального государства, опыт зарубежных стран и практическая реализация в условиях Узбекистана. Также подробно исследуются вопросы достоинства человека, социальной справедливости, равенства и правовой защиты в государственной политике.

Результаты исследования имеют важное научное и практическое значение для развития Узбекистана как демократического государства, обеспечивающего социальную справедливость и права человека. Статья помогает гражданам понять эффективность социальной политики и совершенствовать механизмы реализации прав человека.

Ключевые слова: социальное государство, права человека, социальная справедливость, Конституция, человеческое достоинство, социальная защита, равенство, демократическое общество.

Annotation: This article analyzes the role of the "social state" principle in ensuring human rights, as established in the new edition of the Constitution of the Republic of Uzbekistan. It covers the theoretical foundations of the social state concept, the experience of foreign



Date: 5th May-2026

countries, and its practical application in Uzbekistan. The study also examines human dignity, social justice, equality, and legal protection in state policy in detail.

The results of the study have significant scientific and practical importance for developing Uzbekistan as a democratic state that ensures social justice and human rights. The article helps citizens understand the effectiveness of social policy and further improve mechanisms for realizing human rights, while providing researchers and policymakers with a comprehensive legal and social framework for applying the social state principle.

Keywords: social state, human rights, social justice, Constitution, human dignity, social protection, equality, democratic society.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida “ijtimoiy davlat” g‘oyasining qonuniy asosga ega bo‘lishi fuqarolar huquqlarini mustahkamlash va xalq farovonligini yuksaltirish sari qo‘yilgan strategik qadam hisoblanadi. Ushbu tamoyil mamlakatimiz davlatchilik asoslarining konstitutsiyaviy qoidasiga aylandi. Ijtimoiy davlat nazariyasi oddiy moddiy yordam tizimidan keng bo‘lib, insonning obro‘-e‘tibori, qadr-qimmati va mustaqilligini eng oliy ne‘mat deb tan oluvchi siyosiy-huquqiy dunyoqarashdir. Konstitutsiyaning 1-moddasida “O‘zbekiston - suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat”²⁵ deb mustahkamlangan. Mazkur qoida inson manfaatlarini markaziy o‘rin egallagan davlat siyosiy kursini aks ettiradi. Shu sababli “ijtimoiy davlat” konsepsiyasi O‘zbekistonda konstitutsion yangilanishlarning asosiy yo‘nalishini belgilab, fuqaro huquq va erkinliklarining huquqiy himoyasini ta‘minlashning kafolatiga aylandi. Ijtimoiy davlatning bosh vazifasi jamiyatning har bir a‘zosi uchun insoniy yashash sharoitlarini vujudga keltirish, ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillarini hayotga tatbiq etishdir.

O‘zbekistonning yangilangan Konstitutsiyasi ijtimoiy davlat g‘oyasini inson qadr-qimmati tushunchasi bilan birlashtirdi. 13-moddada insonning sha‘ni, obro‘-e‘tibori va manfaatlarini oliy qadriyat sifatida davlat tomonidan tan olinishi belgilab qo‘yilgan. Bundan tashqari, 46-moddada nogiron shaxslar, qariyalar va mehnatga qodir bo‘lmagan fuqarolarni ijtimoiy muhofaza qilish mas‘uliyati davlatga yuklatilgan. Ushbu moddalar ijtimoiy davlat mohiyatini aniq namoyon etadi - ya‘ni fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini qo‘riqlash davlat siyosatining hal qiluvchi vazifasiga aylangan. Ijtimoiy davlatning falsafiy negizi insonning tug‘ma huquqlarini e‘tirof etish va ularni amalga oshirish uchun qulay muhit yaratishdan iborat. Inson huquqlari doirasi faqat siyosiy va shaxsiy erkinliklarni emas, balki ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlarni ham o‘z ichiga qamrab oladi. Ana shu nuqtai nazardan ijtimoiy davlat fuqarolarning keng qamrovli rivojlanishini ta‘minlaydigan yaxlit bir mexanizm sifatida baholanadi.

O‘zbekistonda ijtimoiy davlat konsepsiyasi Prezident Sh. Mirziyoyev rahbarligida yangi bosqichga ko‘tarildi. “Adolatli davlatning eng muhim xususiyati, avvalo, inson qadri va qonun ustuvorligini mustahkamlash uning bosh vazifasi ekanida ko‘rinadi”²⁶ deb

²⁵ O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2023

²⁶ Sh. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi, T: O‘zbekiston 2021, 20-bet



Date: 5th May-2026

ta'kidlagan. Bu fikr davlat siyosatida inson manfaatlarini ustuvor qilish tamoyilining huquqiy asosga aylanganini bildiradi.

Bugungi kunda mamlakatda ijtimoiy adolat, hamjihatlik, fuqarolar qadr-qimmati va tenglik qadriyatlariga qurilgan siyosiy yo'nalish amalga oshirilmoqda. "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VM qarori (2021-yil 21-oktyabr) aholi orasidagi himoyaga muhtoj toifalarni qo'llab-quvvatlash tizimini belgilab berdi. Bundan tashqari, "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" va "Temir daftar" singari davlat dasturlari ijtimoiy davlat tamoyilining hayotiy in'ikosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Ijtimoiy davlatning eng muhim belgilaridan biri - fuqarolar uchun ijtimoiy muhofaza kafolatlarini qonunchilik asosida ta'minlash. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir qator moddalari asosiy ahamiyat kasb etadi. Jumladan, 42-moddada mehnat qilish va adolatli ish sharoitlaridan foydalanish huquqi, 46-moddada ijtimoiy ta'minot huquqi, 48-moddada tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi, 50-moddada esa har bir fuqaroning bepul umumiy ta'lim olish huquqi mustahkamlangan. Mazkur huquqlarni qonuniy kafolatlar bilan ta'minlash orqali davlat nafaqat fuqarolarning moddiy ahvolini, balki ularning ijtimoiy jihatdan barqarorligini ham himoya qiladi. Shu tufayli ijtimoiy davlatning asosiy harakatlantiruvchi kuchi - inson sha'ni va huquqlarining amalda ro'yobga chiqishi hisoblanadi

"Ijtimoiy adolat - bu inson huquqlarining amalda ta'minlanish darajasi bilan o'lchanadi"²⁷. Shunday ekan, inson huquqlarini real kafolatlash uchun davlat nafaqat qonunlar yaratishi, balki ularni amalga oshirish mexanizmlarini ham shakllantirishi zarur.

So'nggi davrlarda O'zbekiston hukumati "Kambag'allikdan faravonlik sari" dasturi, "Ijtimoiy himoya qilish tizimini rivojlantirish strategiyasi" singari muhim hujjatlarni qabul qildi. Ushbu dasturlar fuqaro huquqlarining eng asosiy tarkibiy qismi - insoniy turmush darajasini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Zero kambag'allikni kamaytirish faqat iqtisodiy vazifa emas, balki insonning qadr-qimmati, uning imkoniyatlari va huquqlari bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liq ijtimoiy muammodir.

Ta'lim va tibbiyot tarmoqlarida olib borilayotgan islohotlar ham ijtimoiy davlat g'oyasining amaliy namunasidir. Yaqin yillarda maktabgacha ta'lim muassasalarining tarmog'i sezilarli darajada kengaydi, oliy o'quv yurtlarida o'qish imkoniyatlari yanada ochildi, sog'liqni saqlash sohasida esa bepul tibbiy xizmat olish doirasi bo'yicha aholi qamrovi oshirildi. Mazkur islohotlar ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillarini ro'yobga chiqarish yo'li bilan inson huquqlarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida "samarali ijtimoiy siyosat" ustuvor vazifa sifatida belgilab qo'yilgan. Ushbu strategiya doirasida fuqarolar manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy ta'minot tizimini yangilash va qonuniy kafolatlarini kuchaytirish bosh maqsad etib qo'yilgan. Bu esa ijtimoiy davlat g'oyasining yangi rivojlanish pog'onasiga yetganini ko'rsatadi. Ijtimoiy davlatda fuqaro huquqlari qog'oz yuzida emas, balki hayotiy haqiqatga aylanadi, chunki ular uchun

²⁷ Saidov A.X. Inson huquqlari umumiy nazariyasi. T: Adolat ,2012, 134-bet



Date: 5th May-2026

qonunlar, davlat dasturlari, jamg'armalar va ijtimoiy tuzilmalar orqali aniq amaliy mexanizmlar ishlab chiqiladi. Shu nuqtai nazardan ijtimoiy davlat insonparvarlik asoslariga qurilgan huquqiy davlatning oliy bosqichi hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Ijtimoiy davlat nazariyasi va inson huquqlari sohasidagi ilmiy adabiyotlar so'nggi o'n yillikda keskin ko'paydi. A.X. Saidov (2012) inson huquqlarining umumiy nazariyasini atroflicha ko'rib chiqib, davlatning fuqarolar oldidagi majburiyatlarini va ijtimoiy kafolatlar tizimini keng yoritgan. Ushbu manba ijtimoiy davlat tamoyilining huquqiy mazmunini tushunishda asosiy qo'llanma sifatida qaraladi.

Y. Habermas (1992) ijtimoiy davlatning huquqiy davlat bilan munosabatini tadqiq etib, formal tenglikdan real tenglikka o'tishning nazariy asoslarini ishlab chiqqan. Ushbu yondashuv O'zbekiston misolida ijtimoiy davlat tamoyilini huquqiy jihatdan baholashda muhim metodologik mezon bo'lib xizmat qiladi.

Mavjud adabiyotlarni umumlashtirib aytish mumkinki, O'zbekiston Konstitutsiyasidagi ijtimoiy davlat tamoyilini xorijiy tajriba bilan to'g'ridan-to'g'ri qiyosiy tahlil qilgan tadqiqotlar juda cheklangan sonda. Ushbu maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirishga intiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqot asosan qiyosiy huquq va tarixiy-huquqiy metodologiyasiga tayanadi. Ijtimoiy davlat tamoyilini o'rganish uchun quyidagi metodlar qo'llanilgan: normativ tahlil -Konstitutsiya va qonun matnlari, me'yoriy hujjatlar hamda rasmiy sharhlar ko'rib chiqiladi; qiyosiy tahlil -bir xil huquqiy muammolar (ijtimoiy himoya, inson qadri, davlat majburiyatlari) turli mamlakatlarda qanday hal etilganligi o'rganiladi; tizimli tahlil - ijtimoiy davlat tamoyilining O'zbekiston huquqiy tizimidagi o'rni va amaliy samaradorligi baholanadi.

Birlamchi manbalar sifatida O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi (2023), "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasi qarori (2021), BMT Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948) va Germaniya, Fransiya, Janubiy Koreya tajribalariga oid rasmiy hujjatlar ishlatilgan. Ikkilamchi manbalar sifatida xalqaro ilmiy jurnallardagi peer-reviewed maqolalar va monografiyalar foydalanilgan.

Natijalar va tahlil

Yevropa davlatlarida, xususan Germaniya va Skandinaviya mamlakatlarida "ijtimoiy davlat" (Sozialstaat) tushunchasi o'tgan asrning o'rtalarida shakllanib, rivojlangan. Taniqli nemis faylasuf-huquqshunos Yurgen Habermas bu borada shunday fikrni bayon etgan: "Ijtimoiy davlat huquqiy davlatning davomi bo'lib, u formal tenglikni real tenglikka aylantiradi"²⁸. O'zbekiston ham ana shunday huquqiy modelni o'z milliy konstitutsion tizimiga moslashtirdi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 22-moddasida "Har bir inson jamiyat a'zosi sifatida ijtimoiy ta'minot huquqiga ega"²⁹ deb belgilangan. Mazkur xalqaro

²⁸ Habermas Y., Rechtsstaat und Sozialstaat, 1992, s. 88b

²⁹ BMT Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi, 1948



Date: 5th May-2026

hujjat O‘zbekiston Konstitutsiyasidagi ijtimoiy davlat qoidasi bilan hamohang bo‘lib, davlatning fuqarolar huquqlarini muhofaza etishdagi faol rolini aniq belgilab beradi.

Xalqaro amaliyot tahlili shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy davlat g‘oyasi har bir mamlakatning o‘ziga xos tarixiy, iqtisodiy va madaniy muhitiga qarab turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Biroq barcha holatlarda ushbu tamoyilning asosiy mazmuni insonning qadr-qimmatini yuksaltirish, ijtimoiy tenglikka erishish va davlatning o‘z fuqarolar oldidagi javobgarligini kuchaytirish bilan bog‘liqdir.

Germaniyada ijtimoiy davlat modeli dunyodagi eng mustahkam va samarali tuzumlardan biri sifatida e‘tirof etilgan. Ushbu mamlakatda ijtimoiy davlat tamoyili konstitutsiya darajasida mustahkamlangan bo‘lib, u barcha fuqarolarga iqtisodiy jihatdan himoyalanganlik va ijtimoiy kafolatlarni ta‘minlaydi. Germaniyada tibbiy ta‘minot, nafaqa, ishsizlik bo‘yicha yordam va ta‘lim sohalari yagona ijtimoiy strategiya asosida boshqariladi. Ushbu tizimning asosiy vazifasi fuqarolarning turmush darajasini barqaror saqlash va jamiyatdagi tabaqa farqlarini kamaytirishdan iborat.

Fransiya tajribasida “ijtimoiy respublika” tushunchasi muhim o‘rin egallaydi. Bu modelda davlat barcha fuqarolarga hayot darajasini yaxshilash uchun zarur shart-sharoitlar yaratishni o‘z zimmasiga olgan. Fransiyada ijtimoiy himoya tizimi keng tarmoqlangan bo‘lib, unda tibbiy sug‘urta, bolalar nafaqasi, keksalar uchun yordam va ishsizlik bo‘yicha nafaqa tizimi mavjud. Ushbu siyosat jamiyatda adolat va tenglik tamoyillarini mustahkamlaydi.

Janubiy Koreyada ijtimoiy davlat modeli iqtisodiy o‘rish bilan uzviy bog‘liq tarzda shakllangan. Bu mamlakatda mehnat munosabatlari, sog‘liqni saqlash, ta‘lim va ijtimoiy muhofaza sohalari zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida samarali boshqariladi. Har bir fuqaro uchun maxsus elektron ijtimoiy xizmatlar tizimi joriy etilgan bo‘lib, bu tizim ijtimoiy adolatni ta‘minlashda muhim rol o‘ynamoqda.

Xorijiy tajribalarni umumiy tarzda qiyoslab ko‘rish shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy davlatning universal bir qolip modeli mavjud emas. Har qaysi mamlakat o‘zining an‘analari, siyosiy tuzilmasi va iqtisodiy imkoniyatlariga asoslanib o‘ziga xos milliy ijtimoiy yo‘nalish shakllantirgan. Ammo barcha muvaffaqiyatli namunalar bitta haqiqatni tasdiqlaydi - ijtimoiy davlatning mag‘zini inson qadri, adolat va tenglik tashkil etadi. O‘zbekiston uchun bu xalqaro tajribalardan o‘rganish beqiyos ahamiyat kasb etadi. Hozirda mamlakatimiz ijtimoiy davlat g‘oyasini amaliyotda qo‘llashda ayni shu jahon tajribasidan maqsadga muvofiq foydalanmoqda.

Xulosa

Yakuniy xulosa sifatida ta‘kidlash lozimki, ijtimoiy davlat tamoyili fuqarolar huquqlarini ro‘yobga chiqarishning eng muhim konstitutsiyaviy poydevorlaridir. O‘zbekistonning yangilangan Konstitutsiyasi ushbu g‘oyani davlat boshqaruvining markaziy qismiga ko‘tardi. Davlat fuqarolarning hayotini, sha‘nini, erkinligini va moddiy farovonligini ta‘minlash yo‘lida fuqarolar huquqlarining himoyachisi sifatida faol harakat qilmoqda. Shunday ekan, ijtimoiy davlat tamoyilini to‘liq anglash va uni kundalik amaliyotga izchil joriy etish O‘zbekistonni fuqarolar huquqlari to‘liq ta‘minlangan, adolatli va barqaror demokratik jamiyatga aylantirish yo‘lida asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.



Date: 5thMay-2026

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2023.
2. Sh. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
3. “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VM 654-son qarori, 2021.
4. BMT Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1948-yil.
5. Saidov A.X. Inson huquqlari umumiy nazariyasi. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi, IIV Akademiyasi, 2012.
6. Habermas Y. Rechtsstaat und Sozialstaat. – Berlin: Suhrkamp Verlag, 1992.

